[6]. S.G.Matlatipov, J.Rajabov, E.Kuriyozov, M.Aripov. "UzABSA: Aspect-based sentiment analysis for the Uzbek language," in Proc. 3rd Annu. Meeting Special Interest Group Under-resourced Lang. @ LREC-COLING 2024, May 2024, pp. 394–403.

[7]. D.Jurafsky and J.H.Martin. Speech and Language Processing, 3rd ed. draft. Pearson, 2020.

[8]. K.Madatov, S.Matlatipov, M.Aripov. "Uzbek text's correspondence with the educational potential of pupils: a case study of the School corpus," arXiv preprint arXiv:2303.00465, 2023.

[9]. J.Mattiev, U.Salaev, B.Kavšek. "Advanced Word Game Design Based on Statistics: A Cross-Linguistic Study with Extended Experiments," Big Data Cogn. Comput., vol. 9, № 4, p. 103, 2025.

Bobojonova Shahnoza Yo'ldosh qizi (Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti (PhD);
shakhnoza.bobojonova@gmail.com; Orcid: 0009-0000-3204-345X)

TA'LIMIY DISKURSDA INSTITUTSIONALLIK VA BAHOLASH TILINING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'limiy diskurs zamonaviy tilshunoslikning "matn–kontekst–institut" yondashuvi asosida izohlanib, ta'lim jarayoni nafaqat bilim berish va o'rganish bilan cheklanadigan oddiy faoliyat, balki o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijtimoiy rollar, baholash amaliyotlari, me'yorlar til orqali qanday shakllanishini ko'rsatadigan institutsional muloqot tizimi sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so'zlar: *ta'limiy diskurs, institutsional muloqot, o'qituvchi roli, baholash tili, instruktsiya tili, janr, metadiskurs, minimatnlar.*

Ш.Ю.Бобожонова (кандидат наук, доцент, Ташкентский университет прикладных наук;
shakhnoza.bobojonova@gmail.com; Orcid: 0009-0000-3204-345X)

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЯЗЫКА ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОСТИ И ОЦЕНКИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В данной статье образовательный дискурс интерпретируется на основе подхода современной лингвистики «текст-контекст-институт», а образовательный процесс рассматривается не только как простая деятельность, ограниченная передачей и усвоением знаний, но и как институциональная коммуникационная система, демонстрирующая, как социальные роли, методы оценки и нормы взаимодействия между учителями и учениками формируются посредством языка.*

Ключевые слова: *образовательный дискурс, институциональная коммуникация, роль учителя, язык оценки, язык обучения, жанр, метадискурс, минитексты.*

Sh.Y.Bobojonova (PhD, associate professor, University of Tashkent of Applied Sciences;
shakhnoza.bobojonova@gmail.com; orcid: 0009-0000-3204-345X)

LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS OF INSTITUTIONALITY AND EVALUATION LANGUAGE IN EDUCATIONAL DISCOURSE

Annotation. *In this article, educational discourse is interpreted based on the "text-context-institute" approach of modern linguistics, and the educational process is interpreted not only as a simple activity limited to imparting and learning knowledge, but also as an institutional communication system that shows how social roles, assessment practices, and norms between teachers and students are formed through language.*

Key words: *educational discourse, institutional communication, teacher role, assessment language, instructional language, genre, metadiscourse, mini-texts.*

Kirish. Ta'limiy diskurs tushunchasi bugungi tilshunoslikda tobora ko'proq ahamiyat kasb etayotgani bejiz emas, chunki ta'lim jarayoni faqat ma'lumot berish bilan cheklanmay, ayni paytda, talabaning qanday yozishi, qanday gapirishi, qanday javob berishi va qanday fikr yuritishi kerakligini ham belgilab beradigan me'yorlar tizimini yaratadi, shu sababli ta'limiy muloqotda ishlatiladigan har bir ko'rsatma, baho yoki izoh ortida ma'lum pragmatik maqsad va institutsional talablar turadi. Diskurs yondashuvi ta'limni statik shunchaki matnlar yig'indisi sifatida emas, balki vaqt bo'yicha ketma-ket rivojlanadigan, vaziyatga moslashadigan hamda ishtirokchilarning niyati bilan boshqariladigan nutqiy amaliyot sifatida ko'rgani uchun, "kim gapiryapti?", "kimga gapiryapti?", "qaysi maqomda gapiryapti?" va "qaysi natijani ko'zlayapti?" kabi savollar ta'limiy diskursni tahlil qilishda bosh mezonlardan biriga aylanadi. Shu bilan birga, ta'limiy diskursni faqat nazoratga yo'naltirilgan diskurs deb ko'rish ham to'liq tasvir bera olmaydi, chunki zamonaviy ta'limda hamkorlik, talabaning mustaqilligi va faol ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan yondashuvlar kengayib borayotgani sababli, nazorat va hamkorlik o'rtasidagi muvozanat til vositalari yordamida qanday yaratilishi masalasi alohida tahlilni talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ta'limiy diskursni institutga bog'langan muloqot shakli sifatida izohlashda Humes ta'lim boshqaruvi va ta'lim siyosati tiliga e'tibor qaratib, boshqaruv leksikonida uchraydigan "learning

communities", "participation", "transformational leadership" kabi iboralar koʻpincha hamkorlik va ochiqlikni bildirayotgandek tuyulsa-da, real amaliyotda ular institut nazoratini biroz yengilroq koʻrsatib, qaror qabul qilish vakolati kimda ekanini, koʻpincha, yashirishi mumkinligini taʼkidlaydi, shu orqali diskursda neytrallik va obyektivlik effekti qanday yuzaga kelishini muhokama qilishga zamin yaratadi [1;35–53-b.]. Hyland esa akademik diskurs va taʼlimiy muloqot oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni koʻrsatib, "diskurs hamjamiyati" va "janr" tushunchalarini taʼlimiy diskursning normativ talablarini izohlashda muhim nazariy tayanch sifatida talqin qiladi, chunki talaba tilni oʻrganar ekan, ayni paytda maʼlum fan sohasida qabul qilingan yozish, gapirish va dalillash usullarini ham oʻzlashtiradi [2]. Janr yondashuvi taʼlimiy diskursning ketma-ketlikda ishlashini koʻrsatadi: sillabus meʼyor va qoidani belgilaydi, topshiriq matni vazifani bajarish yoʻlini koʻrsatadi, rubrika baholash mezonlarini standartlashtiradi, feedback esa natijani baholab, keyingi ishga yoʻnaltiradi; natijada tushuncha bitta matn ichida emas, balki janrlararo aloqada shakllanadi. Kharkovskaya esa zamonaviy taʼlimda miniformat matnlar koʻpayib borayotganini qayd etib, bunday ixcham matnlar taʼlim surʼati tezlashgani, tezkor yoʻriqnoma va aniq koʻrsatmaga ehtiyoj ortgani bilan bogʻliqligini koʻrsatadi, shu bilan birga, minimatnlar koʻpincha semantik jihatdan zich boʻlgani uchun, oʻquvchi aytilmagan maʼnolarni kontekst yoki oldingi tajribaga tayanib tiklashiga toʻgʻri kelishini ham taʼkidlaydi [3;62–76-b.]. Diaxron yoʻnalishda Drozhashchikh tarixiy pragmatika va diaxron diskurs tahlili imkoniyatlarini yoritib, taʼlimiy janrlarning tarixiy shakllanishi bugungi rasmiy shablon va normativ formulalarning ildizini tushuntirishda foydali ekanini koʻrsatadi [4;37–42-b.]. Psixologik tadqiqotlar taʼlimiy diskursni kognitiv va emotsional jarayonlar bilan bogʻlab, muloqotda mantiqiy va hissiy lugʻatning navbatma-navbat qoʻllanishi talaba motivatsiyasini qanday shakllantirishini izohlashga xizmat qiladi.

Muhokama. Taʼlimiy diskursning institutsionalligi, odatda, oʻqituvchi va talaba rollari oʻrtasidagi vakolat va masʼuliyatning notekis taqsimlanishi orqali namoyon boʻlib, bunda oʻqituvchi koʻrsatma beradi, talab qoʻyadi, cheklov kiritadi va baholaydi, talaba esa koʻproq hisobot beruvchi, meʼyorni bajaruvchi hamda asoslovchi rolida koʻrinadi, natijada esa til birliklarining tanlovi ham, gapning illokutiv kuchi ham aynan shu status–rol tuzilmasi bilan shartlanadi. Shunga qaramay, zamonaviy taʼlimiy muloqotda oʻqituvchi, koʻpincha, faqat nazoratchi emas, balki yoʻnaltiruvchi sifatida ham chiqayotgani sababli, u buyruq va talabni toʻgʻridan toʻgʻri shaklda emas, balki yumshatuvchi modallik ("should", "could", "it would be better"), taklif va maslahat konstruksiyalari ("let's…", "try to…", "keling…","qani",) hamda metadiskurs markerlari ("eʼtibor bering", "keling, xulosa qilamiz", "asosiy fikr shuki…") orqali beradi, shuning natijasida nazorat va hamkorlik oʻrtasida pragmatik muvozanat hosil boʻladi. Metadiskursning taʼlimiy diskursdagi roli, ayniqsa, muhim, chunki u matnni segmentlaydi, maʼlumot oqimini tartibga soladi va tinglovchi yoki oʻquvchining diqqatini kerakli nuqtaga yoʻnaltiradi; shu bois mantiqiy izchillik faqat bogʻlovchilar bilan emas, balki "yoʻnaltiruvchi" pragmatik markerlar orqali ham taʼminlanadi.

Taʼlimiy diskursda baholash tili institutning meʼyoriy modelini qayta ishlab chiqaradigan asosiy vositalardan biri boʻlib, rubrika va feedback formulalari talabaning "qanday yozishi kerak", "qanday dalillashi kerak" va "qanday taqdim etishi kerak" degan talablarni til orqali normallashtiradi, ayniqsa, nominalizatsiya ("aniqlik", "mantiqiylik", "dalillilik") va impersonal konstruksiyalar ("talab etiladi", "koʻzda tutiladi", "baholanadi") baholashni shaxsiy fikr emas, mezonning xulosa sifatida koʻrsatib, qarorni xolis tusda asoslaydi. Biroq bu yerda muhim jihat shundaki, xolislik, koʻpincha, diskursiv effekt boʻlib, u talabaning baholashni odatiy qabul qilishini osonlashtirsa-da, uning ortida institutning qadriyatlari va maqsadlari turgani sababli, tahlil jarayonida formal jihatdan betaraf koʻringan birliklarning ham muloqotda qanday pragmatik natija berishini aniqlash zarur.

Zamonaviy taʼlimiy diskursning yana bir belgilari miniformat matnlar va raqamli platformalardagi (taʼlimiy-boshqaruv muloqot materiali, elektron topshiriqlar, onlayn fikrlar) qisqa yoʻriqnomalar koʻpayganı bilan bogʻliq boʻlib, bunday format, bir tomondan, segmentatsiya, punktlar va cheklistlar orqali kognitiv yukni kamaytirsa, ikkinchi tomondan, semantik boʻshliqlarni koʻpaytirib, talabaning kontekstga tayanib, yashirin maʼnoni tiklashini talab qiladi, natijada pragmatik inferensiya kuchayadi va kommunikativ xatolar ehtimoli ortadi. Shuningdek, abbreviatsiyalar taʼlimiy muhitda tezkorlik va iqtisodiylikni taʼminlagan holda, institutga mansublikni bildiruvchi guruh ichidagi belgilash tizimi sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Shu bois ular yangi oʻrganuvchilar uchun tushunishda toʻsiqqa aylanish ehtimolini oshiradi, natijada toʻliq nomni birinchi marta keltirish, izoh berish va kichik glossariy tuzish kabi toʻldiruvchi strategiyalar pedagogik pragmatikaning muhim qismi sifatida koʻriladi.

Shu nuqtadan kelib chiqib, taʼlimiy diskursni tahlil qilishda materialni korpus sifatida tashkil etish, yaʼni, darslik boʻlimlari, topshiriqlar, rubrikalar, fikr-mulohazalar namunalarini tanlab, ularni janr, fan, kurs bosqichi va kanal kabi metabelgilar bilan belgilash, keyin esa imperativ, modallik, passiv, metadiskurs markerlari hamda "criteria/outcome/requirement; mezon/natija/talab" kabi leksik koʻrsatkichlarni tizimlashtirish, tahlilni yanada ishonchli va tekshiruvchan qiladi. Bunday yondashuv natijada rubrika va topshiriq ti-

lini soddalashtirish, fikr-mulohazaning ta'sirchanligini oshirish, qisqartmalarni standartlashtirish hamda talaba faol ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladigan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Xulosa. Umuman olganda, ta'limiy diskursni tilshunoslikda o'rganish, bir tomondan, o'qituvchi va talaba rollari o'rtasidagi kuch va masofa nisbatini, baholash va me'yor belgilash mexanizmlarini hamda janrlar zanjirini til vositasida qanday ishlashini ochishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, zamonaviy format va kanal o'zgarishlari (minimatnlar, raqamli platformalar, qisqartmalar) semantik zichlik va pragmatik inferensiyani kuchaytirayotgani sababli, tahlilda betaraf ko'rinadigan til vositalarining real pragmatik oqibatlarini ham ko'rish zarurligini ko'rsatadi, shu tariqa, ta'limiy diskurs tahlili shaffof va tushunarli kommunikatsiya yaratish, baholash tilini adolatliroq qilish hamda talaba agentligini real darajada kuchaytirish bo'yicha nazariy asos va amaliy yo'l-yo'riq beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Humes W. The Discourses of Educational Management. Journal of Educational Enquiry. 2000, vol. 1, № 1, p. 35–53.

(2). Hyland K. English for Academic Purposes: An Advanced Resource Book. London, Routledge, 2006, 356 p.

(3). Kharkovskaya A.A., Ponomarenko E.V., Radyuk A.V. Minitexts in modern educational discourse: Functions and trends. Training, Language and Culture. 2017, vol. 1, № 1, p. 62–76.DOI: 10.29366/2

(4). Drozhashchikh N.V. Linguistic Structures in English Diachronic Educational Discourse. TSU Herald (Вестник Тюменского государственного университета) 2012, № 1, с. 37–42.

(5). Mykhalchuk N., Onufriieva L. Psychological Analysis of Different Types of Discourse. Проблеми сучасної психології. Зб. наук. праць., 2020, вип. 50, с. 188–210. DOI: 10.32626/2227-6246.2020-50.188-210.

(6). Сафаров Ш. (2008). Прагмалингвистика. Тошкент, ЎзМЭ, 285-bet.

(7). Раупова Л. (2011). Диалогик нутқнинг дискурсив талқини. Тошкент, "Фан".

(8). Bobojonova S.Y. (2025). Ta'limiy diskursda lingvomadaniy me'yorlar. Konferensiya, 1(2), 779–785-betlar.

Saidoripova Dilorom Saidaxmad qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi katta o'qituvchisi)

FORS TILIDAGI RAVISH YASOVCHI آنه *[ĀNE]* SUFFIKSINING گانه *[GĀNE]*, وانه *[VĀNE]* HAMDA یانه *[YĀNE]* ALLOMORFLARI TAHLILI

Annotatsiya. *Tilshunoslikda lug'at tarkibining boyib borishida so'z yasashning affiksatsiya usuli muhim o'rin tutadi. Mazkur usulda so'z asosiga turli affikslar – prefiks, infiks va suffikslar qo'shilishi orqali yangi leksik birliklar hosil qilinadi. Fors tilida, ayniqsa, ravish yasovchi suffikslar va ularning suffiksal allomorflari yordamida ravish hosil qilish keng rivojlangan usullardan biri sanaladi. Ushbu maqolada tilshunoslikda allomorf tushunchasi to'g'risidagi nazariyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, fors tilida ravish yasovchi suffiksal allomorflarning funksional-semantik xususiyatlari hamda ularning kontekstual qo'llanishi masalalari yoritiladi. Tadqiqot doirasida آنه [āne] suffiksi hamda uning گانه [gāne], وانه [vāne] va یانه [yāne] kabi suffiksal allomorflari ilmiy manbalar va badiiy adabiyotlardan olingan misollar asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar*: suffiks, allomorf, suffiksal allomorf, affiksatsiya, yasama ravish.*

Саидорипова Дилором Саидахмад қизи (Ташкентский государственный университет востоковедения, старший преподаватель Высшей школы иранистики и афганистики)

АНАЛИЗ АЛЛОМОРФОВ گانه *[GĀNE]*, وانه *[VĀNE]* И یانه *[YĀNE]* СУФФИКСА آنه *[ĀNE]*, ОБРАЗУЮЩЕГО НАРЕЧИЯ В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация*. В лингвистике важную роль в обогащении словарного состава языка играет аффиксационный способ словообразования. При данном способе новые лексические единицы образуются путём присоединения к основе слова различных аффиксов – префиксов, инфиксов и суффиксов. В персидском языке одним из широко развитых способов является образование наречий с помощью суффиксов и их суффиксальных алломорфов. В данной статье анализируются теории, связанные с понятием алломорфа в лингвистике. Также рассматриваются функционально-семантические особенности суффиксальных алломорфов, образующих наречия в персидском языке, а также вопросы их употребления в контексте. В рамках исследования суффикс آنه [āne] и его суффиксальные алломорфы گانه [gāne], وانه [vāne] и یانه [yāne] анализируются на основе примеров, заимствованных из научных источников и художественной литературы.*

Ключевые слова: *суффикс, алломорф, суффиксальный алломорф, аффиксация, производное наречие.*